



2018 yil yanvar-sentabr 2597 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 287 taga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (30,4 %), savdo sohasida (24,1 %), qurilish tarmog'ida, (10,5%), qishloq va o'rmon xo'jaligida (8,2 %), yuklash va saqlash (5,7 %), yashash va ovqatlanish xizmatlar ko'rsatish (5,7 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan kichik korhona va mikrofirmalar soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor (21,4 birlik), Andijon (18,1 birlik), Xodjaobod (15,5 birlik), Bo'z (14,4 birlik) va Marxamat (12,5 birlik) tumanlariga to'g'ri keladi.

O'rtacha ko'rsatkich oralig'ida 10-13 birlik Kurgontepa, Baliqchi, Asaka, Oltinkul, Jalalquduk. Pahtaobod (9,2 birlikda), Buloqboshi (8,1 birlikda), Izboskan (8,0 birlikda), Shaxrihon (7,9 birlikda) va Honobod (7,8 birlikda) ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda. (rasm.2).


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



2016 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,1 birlikda bo'lib, 2017 yilda 13,0 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,8 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 0,7 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 74,1% ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentabrda 79,6%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %**



**2018 yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Andijon viloyati	20,9	97,5	72,2
Andijon shahri	26,7	96,0	44,8
Honobod shahri	13,6	100,0	1,3
tumanlar:			
Andijon	76,2	100,0	5,8
Asaka	2,5	100,0	6,5
Baliqchi	73,4	100,0	4,7
Bo'z	69,2	100,0	1,1
Buloqboshi	100	100,0	2,9
Jalalquduq	50,0	83,8	3,7
Izboskan	56,2	100,0	4,6
Ulugnor	45,3	74,7	0,9
Marxamat	71,7	100,0	3,4
Oltinkul	87,0	100,0	3,5
Pahtaobod	99,9	100,0	3,9
Xujaobod	72,5	100,0	2,3
Shaxrihon	88,7	100,0	6,2
Qo'rgontepa	74,0	94,8	4,4

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Buloqboshi (100,0 %), Pahtaobod (99,9 %), va Shaxrihon (88,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Shaxrihon (100,0 %), Oltinkul (100,0 %), Marxamat (100,0 %) va Bo'z (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Andijon (44,8 %), Shaxrihon (6,2 %), Oltinkul (3,5 %) va Qo'rgontepa (4,4 %), Baliqchi (4,7 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 9703,2 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 20,9 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 125,6 % ni tashkil qildi;

– 1612,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 62,1 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentabr nisbatan o`shish sur`ati 118,4 % ni tashkil qildi;

– 1084,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 97,5 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– sentabr nisbatan o`shish sur`ati 105,2 % ni tashkil qildi;

– 3647,9 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (xizmatlar hajmining 72,2 %), 2017yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 106,0 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 103,6 % yoki 4962,0 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 1,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 169,7 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 50,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa **2017** yilga nisbatan 168,4 mln. AQSh dollariga yoki 100,8 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 0,8 % ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 92,7 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,2 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 96,4 %) ga ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1765,1 mlrd.so'm), Xonabod (416,3 mlrd.so'm) va Asaka (5683,4 mlrd.so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Andijon tuman (255,6 mlrd.so'm) Shaxrihon tuman (246,2 mlrd.so'm) va Hodjaobod tumanida (200,6 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1564,1 mlrd.so'm), Shaxrihon (724,0 mlrd.so'm), Asaka (474,3 mlrd.so'm), Kurgontepa (344,2 mlrd.so'm) va Andijon (257,7 mlrd.so'm) rayonlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (1631,8 mlrd.so'm), Asaka (236,5 mlrd.so'm) Shaxrihon (226,5 mlrd.so'm), Andijon (211,6 mlrd.so'm) va Izboskan (168,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 421 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Kuzatuv ma'lumotlari tahlili sanoatda respondentlarning 53,4 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 33,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 33,3.0 % va 21,4 %, xizmatlar sohasida – 75,0 % va 25 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 50.0 % va 50.0 %, tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 0.0 %, savdoda – 7.2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0.0%, xizmatlarda – 11.0% sanoatda – 8.5%, ni tashkil qildi.



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 92,0 % sanoat korxonalari, 85,7 % – savdo, 98,1 % – xizmatlar, 74,4 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 91,4 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.